
Rishton tumanida yashovchi oila viloyatda “Vatanparvar oila” deb topildi

15 may - Xalqaro oila kuni munosabati bilan respublikamiz bo'ylab may oyi “Farovon oila sari” g'oyasi ostida keng nishonlanmoqda. Oylik doirasida 3 bosqichdan iborat “Yangi O'zbekistonning ibratli oilasi” ko'rik tanlovi ham o'tkazildi. Bugun ushbu ko'rik tanlovning yakuniy, uchinchi bosqichi viloyat miqyosida Marg'ilon shahrida bo'lib o'tdi. Tanlovda viloyatimizning 19 ta shahar va tumanlarida o'tkazilgan 2-bosqich g'oliblari ishtirok etishib, turli shartlar bo'yicha o'zaro bellashishdi. Tanlov yakunlariga ko'ra hakamlar qarori bilan Rishton tumani “Navbahor” mahallasida yashovchi Zulfiqorovlar oilasi “Vatanparvar oila” nominatsiyasida g'olib deb topilib, birinchi o'rinni qo'lga kiritishdi. G'oliblarga tashkilotlarning diplom va bir martalik pul mukofoti sertifikatini topshirildi.

Rishton tuman hokimligi Axborot xizmati

2022-05-15 18:18:48